QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.045

TARBIYACHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING TUZILMASI, MAZMUNI VA DIDAKTIK TA’MINOTI

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi ***N.R.Dushayeva***

Annotatasiya. Mazkur maqolada tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasining tuzilmasi, mazmuni va didaktik ta’minoti ilmiy-pedagogik jihatdan yoritilgan. Tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, axloqiy me’yorlarga rioya qilish, pedagogik mas’uliyat, muloqot madaniyati va shaxsiy namuna ko‘rsatish kabi kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasining maqsad, vazifa, tamoyil, mazmun, shakl, metod va vositalardan iborat tarkibiy tuzilmasi asoslangan. Metodikani samarali tashkil etishda interfaol metodlar, pedagogik vaziyatlar, amaliy mashg‘ulotlar, treninglar va refleksiv topshiriqlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari ochib berilgan. Mazkur yondashuv tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini ma’naviy-axloqiy jihatdan takomillashtirish va ularning pedagogik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tarbiyachi, ma’naviy-axloqiy kompetentlik, kompetentlikni rivojlantirish, metodika, metodik tuzilma, metodik mazmun, didaktik ta’minot, pedagogik kompetensiya, kasbiy rivojlanish, ma’naviy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar.

Аннотация. В данной статье освещаются структура, содержание и дидактическое обеспечение методики развития духовно-нравственной компетентности воспитателей с научно-педагогической точки зрения. Анализируются вопросы формирования духовно-нравственных ценностей, соблюдения этических норм, педагогической ответственности, культуры общения и личного примера в профессиональной деятельности воспитателей. Обоснована структурная модель методики развития духовно-нравственной компетентности, включающая цель, задачи, принципы, содержание, формы, методы и средства обучения. Раскрыты дидактические возможности использования интерактивных методов, педагогических ситуаций, практических занятий, тренингов и рефлексивных заданий в процессе профессионального развития воспитателей. Предлагаемый методический подход способствует совершенствованию профессиональной деятельности воспитателей,

повышению их духовно-нравственной культуры и развитию педагогической компетентности.

Ключевые слова: воспитатель, духовно-нравственная компетентность, развитие компетентности, методика, структура методики, содержание методики, дидактическое обеспечение, педагогическая компетентность, профессиональное развитие, духовные ценности, этические нормы.

Abstract. This article examines the structure, content, and didactic support of a methodology aimed at developing the spiritual and moral competence of preschool educators from a scientific and pedagogical perspective. It analyzes the development of spiritual and moral values, adherence to ethical standards, pedagogical responsibility, communication culture, and the importance of personal example in educators’ professional activities. The structural framework of the methodology for developing spiritual and moral competence is substantiated, including its goals, objectives, principles, content, forms, methods, and instructional tools. The article also highlights the didactic potential of interactive methods, pedagogical situations, practical activities, training sessions, and reflective tasks in the professional development of educators. The proposed methodological approach contributes to improving educators’ professional practice, strengthening their spiritual and moral culture, and developing their pedagogical competence.

Keywords: preschool educator, spiritual and moral competence, competence development, methodology, methodological structure, methodological content, didactic support, pedagogical competence, professional development, spiritual values, ethical standards.

KIRISH. Maktabgacha ta’lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti va ta’lim sifati bilan uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy madaniyati, pedagogik etika va kasbiy mas’uliyat darajasi ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shu sababli tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodikani ishlab chiqish va uni malaka oshirish tizimida samarali joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv ta’lim oluvchining nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki ularni amaliy faoliyatda mustaqil qo‘llay olishini ham nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, tarbiyachining ma’naviy-axloqiy kompetentligi kasbiy bilim, axloqiy e’tiqod, qadriyatli munosabat va pedagogik faoliyatning o‘zaro uyg‘unligi asosida namoyon bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faoliyatga asoslangan yondashuv va kompetensiyaviy ta’limga oid ilmiy qarashlar tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash jarayonida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, L.S. Vigotskiyning shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit va hamkorlikning ahamiyatiga doir qarashlari tarbiyachining ma’naviy-axloqiy sifatlari ijtimoiy munosabatlar, muloqot va amaliy tajriba orqali rivojlanishini izohlashga yordam beradi. A.N.

Leontyevning faoliyat nazariyasi esa shaxs sifatlarining faoliyat jarayonida shakllanishini asoslash imkonini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasining konseptual modeli ishlab chiqilib, uning maqsadi, vazifalari, pedagogik yondashuvlari hamda tamoyillari asoslab berildi. Mazkur paragrafda esa taklif etilayotgan metodikaning tuzilmasi, mazmuniy tarkibi hamda didaktik ta’minoti batafsil yoritiladi.

Mazkur metodika malaka oshirish jarayonida tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishini tizimli tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, u pedagogik jarayonning nazariy va amaliy jihatlarini integratsiyalashgan holda amalga oshirishni nazarda tutadi. Metodika pedagoglarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini uch asosiy yo‘nalishda tashkil etishni taqozo etadi: tuzilmaviy komponentlar tizimi, mazmuniy modul va didaktik ta’minot.

Metodikaning tuzilmasi

Tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasining tuzilmasi pedagog shaxsining kasbiy rivojlanish jarayonini tizimli tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, u bir-biriga uzviy bog‘langan bir necha komponentlardan iborat. Mazkur komponentlar pedagogning kasbiy faoliyatida ma’naviy qadriyatlar, bilimlar, ko‘nikmalar hamda refleksiv faoliyatning uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi.

Metodikaning tuzilmasida quyidagi asosiy komponentlar ajratildi:

- motivatsion komponent
- kognitiv komponent
- faoliyat komponenti
- refleksiv komponent

Motivatsion komponent pedagoglarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga qaratilgan. Bu komponent tarbiyachining kasbiy faoliyatida axloqiy me’yorlarga amal qilish, bolalarga nisbatan insonparvar munosabatni namoyon etish hamda pedagogik etika tamoyillariga sodiq qolish motivatsiyasini rivojlantirishni nazarda tutadi. Motivatsion komponent pedagogning kasbiy faoliyatiga ichki rag‘batlantiruvchi omillarni shakllantirish orqali metodikaning samarali amalga oshirilishini ta’minlaydi. Kognitiv komponent pedagogik etika, ma’naviy qadriyatlar, bolalar psixologiyasi, pedagogik muloqot madaniyati hamda axloqiy qaror qabul qilish bilan bog‘liq nazariy bilimlar tizimini o‘z ichiga oladi. Ushbu komponent tarbiyachilarga o‘z kasbiy faoliyatida axloqiy me’yorlar asosida harakat qilish imkonini beradigan bilimlar bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Faoliyat komponenti pedagoglarning real pedagogik vaziyatlarda axloqiy qaror qabul qilish, bolalar bilan samarali muloqot qilish hamda kasbiy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu komponent pedagogik faoliyatning amaliy jihatini tashkil etadi va trening mashg‘ulotlari, pedagogik case metodlari hamda rol o‘yinlari orqali amalga oshiriladi.

Refleksiv komponent esa pedagoglarning o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va o‘zini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirishga

qaratilgan. Refleksiv faoliyat pedagoglarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan metodikaning mazmuni malaka oshirish kurslarining o‘quv dasturiga integratsiyalashgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, u tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan ma’naviy-axloqiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Metodikaning mazmuni bir nechta o‘quv modullaridan iborat bo‘lib, har bir modul tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligining muayyan komponentini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Birinchi modul pedagogik etika va kasbiy axloq asoslariga bag‘ishlangan. Ushbu modulda pedagogik etikaga oid nazariy bilimlar, tarbiyachining kasbiy xulq-atvori, pedagogik muloqot madaniyati hamda bolalar bilan ishlash jarayonida amal qilinishi zarur bo‘lgan axloqiy me’yorlar o‘rganiladi.

Ikkinchi modul milliy va umuminsoniy qadriyatlarni pedagogik faoliyatga integratsiyalash masalasiga bag‘ishlangan. Ushbu modul doirasida tarbiyachilarga milliy an’analar, ma’naviy qadriyatlar hamda insonparvarlik tamoyillarini ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash usullari o‘rgatiladi.

Uchinchi modul pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur modulda tarbiyachilarning bolalar, ota-onalar hamda hamkasblar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi.

To‘rtinchi modul pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish hamda axloqiy qaror qabul qilish masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu modulda tarbiyachilar real pedagogik vaziyatlar asosida muammolarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish hamda optimal pedagogik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

Beshinchi modul refleksiv faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan. Bu modulda pedagoglar o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, refleksiv kundalik yuritish hamda kasbiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Metodikaning samarali amalga oshirilishi uning didaktik ta’minotiga bevosita bog‘liq. Didaktik ta’minot pedagogik jarayonni tashkil etishda foydalaniladigan metodlar, vositalar hamda tashkiliy shakllarni o‘z ichiga oladi.

Metodikada quyidagi didaktik metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:


- interaktiv treninglar
- pedagogik vaziyatlar tahlili
- rol o‘yinlari
- muammoli vaziyatlar muhokamasi
- refleksiv tahlil

Mazkur metodlar pedagoglarning faol ishtirokini ta’minlaydi hamda ularning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim vositalari sifatida metodik qo‘llanmalar, trening materiallari, pedagogik vaziyatlar banki, diagnostika vositalari hamda multimedia resurslaridan foydalanish nazarda tutiladi. Raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish pedagoglarning mustaqil o‘rganish faoliyatini faollashtirish hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Didaktik ta’minotning muhim tarkibiy elementi sifatida diagnostika va monitoring tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, u tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligining rivojlanish darajasini aniqlash, mazkur jarayonning dinamikasini muntazam kuzatib borish hamda taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini baholash imkonini beradi. Mazkur metodikaning amaliy ahamiyati shundaki, u malaka oshirish jarayonida tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini tizimli va izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, tarbiyachilarda pedagogik etika tamoyillariga rioya qilish, bolalar bilan samarali va madaniyatli muloqot o‘rnatish, turli pedagogik vaziyatlarda axloqiy jihatdan maqbul qarorlar qabul qilish, shuningdek, kasbiy faoliyatda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan xulq-atvorni namoyon etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan, diagnostika, monitoring va rivojlantiruvchi metodik vositalarning o‘zaro uyg‘unligi tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining samaradorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, metodika maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom pedagogik muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish bolalar shaxsining ma’naviy tarbiyasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



2.3-rasm. Tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasining ishlash algoritmi

Quyidagi rasm “Tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasining ishlash algoritmi” ni ifodalaydi va u malaka oshirish jarayonida tarbiyachilar faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur algoritm pedagogik jarayonni tizimli tashkil etish orqali nafaqat tarbiyachining kasbiy faoliyatini, balki maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy rivojlanishini ham ta’minlaydi.

Algoritmning birinchi bosqichi boshlang‘ich diagnostika hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyachilarning mavjud ma’naviy-axloqiy kompetentlik darajasi aniqlanadi. Diagnostika orqali pedagoglarning kasbiy etikaga munosabati, bolalar bilan muloqot madaniyati, axloqiy

vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati hamda refleksiv faoliyat darajasi tahlil qilinadi. Ushbu bosqich metodikaning keyingi jarayonlarini rejalashtirish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Tarbiyachi faoliyati nuqtai nazaridan diagnostika o‘z faoliyatini tanqidiy baholashga yordam beradi, bolalar rivojlanishi nuqtai nazaridan esa pedagogik jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan aniqlash imkonini yaratadi.

Keyingi bosqich maqsad va metodik modullarni aniqlash bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan asosiy maqsad va vazifalar belgilanadi hamda pedagogik etika, muloqot madaniyati, axloqiy qaror qabul qilish, refleksiya kabi metodik modullar tanlanadi. Tarbiyachi faoliyatida bu bosqich kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Bolalar rivojlanishida esa bu jarayon tarbiyaviy ishlarning maqsadli va tizimli tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Algoritmning navbatdagi bosqichi o‘quv jarayonini tashkil etish hisoblanadi. Bu bosqichda trening mashg‘ulotlari, interaktiv metodlar, pedagogik vaziyatlar tahlili hamda muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish texnologiyalari qo‘llaniladi. Tarbiyachi uchun bu jarayon kasbiy tajribani boyitish, pedagogik muammolarni hal etish hamda samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bolalar rivojlanishi nuqtai nazaridan esa tarbiyachining kasbiy malakasi oshishi ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini yaxshilaydi.

Shundan so‘ng amaliy faoliyat bosqichi amalga oshiriladi. Bu bosqichda rol o‘yinlari, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi amaliy mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Tarbiyachilar real pedagogik jarayonga yaqin vaziyatlarda axloqiy qaror qabul qilishni o‘rganadilar. Bu jarayon tarbiyachining professional kompetentligini mustahkamlaydi. Natijada bolalar bilan ishlash jarayonida adolat, hurmat, mehr-oqibat va bag‘rikenglik kabi qadriyatlar amaliy tarzda namoyon bo‘ladi.

Keyingi bosqich monitoring va baholash jarayonidir. Bu bosqichda tarbiyachilarning kompetentlik darajasida yuzaga kelgan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Monitoring orqali metodikaning samaradorligi aniqlanadi hamda zarur hollarda metodik jarayonga tuzatishlar kiritiladi. Tarbiyachi faoliyati nuqtai nazaridan bu bosqich o‘z kasbiy rivojlanish natijalarini baholash imkonini beradi. Bolalar rivojlanishi nuqtai nazaridan esa ta’lim-tarbiya jarayonining sifat ko‘rsatkichlari oshadi.

Algoritmning yakuniy bosqichi natija hisoblanadi. Mazkur metodika natijasida ma’naviy-axloqiy kompetentligi rivojlangan maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi shakllanadi.

XULOSA .

Tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasining tuzilmasi, mazmuni va didaktik ta’minotini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayon maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Tarbiyachining ma’naviy-axloqiy kompetentligi uning kasbiy bilimlari, axloqiy qadriyatlari, pedagogik muloqot madaniyati, kasbiy mas’uliyati hamda bolalar bilan munosabatlarda insonparvarlik tamoyillariga amal qilishi orqali namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, Tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini baholashda motivatsion-qadriyatli, kognitiv, amaliy-faoliyatli va refleksiv mezonlardan foydalanish, shuningdek, ularning rivojlanish darajasini diagnostik vositalar orqali aniqlash metodikaning natijadorligini xolis baholash uchun zarur shart hisoblanadi. Bunda baholash jarayoni tarbiyachilarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda, real pedagogik vaziyatlardagi xatti-harakatlari, muloqot madaniyati va kasbiy mas’uliyatini ham qamrab olishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O‘zbekiston, 1998. – 335 b.
2. Xo‘jaqulov A.E. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilaga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish // p.f.f.d.(PhD) diss.avtoreferati. T.2020. 48 b.
3. Xo‘jamiyarov S.CH. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mas‘uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta‘minlash metodikasini takomillashtirish (katta maktabgacha yosh misolida) // p.f.f.d.(PhD) diss.avtoreferati. T.2023. 55 b.
4. Xurvaliyeva T.L. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish metodikasini takomillashtirish // p.f.d.(DSc) diss.avtoreferati. T.2021. 61 b.
5. Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiyalash va uni zamonaviy talablar asosida boshqarishning o‘ziga xos jihatlari. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye 2020, 3 . - B.63-70
6. Zunnunov A. Pedagogika tarixi // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: 2004. -335 b. B.55
7. Безлюдная В.И. Взаимодействие детского сада и семьи в педагогической коррекции отношений дошкольников со сверстниками: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук : 13.00.01 / АПН СССР. НИИ дошкол. воспитания. -Москва, 1988. -24 с.
8. Бердяев Н.А. Самопознание: Опыт философской автобиографии /Н.А.Бердяев. - М.: Книга, 1991.- 446 с.
9. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
10. Leontiev, A. N. Activity, Consciousness, and Personality. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1978.